



## LAQABLAR MUROJAAT SO'Z VAZIFASIDA QO'LLANISHI

Abdiyeva Madina Bozorovna

QarDUmagistranti

madinaabdiyeva1@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7861296>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 24<sup>th</sup> April 2023

Online: 25<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

*Laqablar, taxalluslar, tashqi belgi, ichki belgi, harakter.*

### ABSTRACT

*Laqablar tinglovchiga nisbat so'zlovchi munosabatini ochib beradi. Laqablar murojaat so'z vazifasida kelganda so'zlovchining kayfiyatini, harakterini, tinglovchiga nisbatan qanday munosabatdaligini ochib beradi.*

Tilning asosiy vazifasi xabar berish va axborotlarni qabul qilish. Tilning bu vazifasi kommunikativ vazifa hisoblanadi. Shunday ekan til aloqa qilishning quroli ekan, bu jarayonda kishilar bir-birlariga murojaat qiladilar. Bu jarayon esa o'z navbatida xabar beruvchi (so'zlovchi), shu xabarni qabul qiluvchi (tinglovchi) o'rtasida yuzaga keladi. Jamiyat a'zolarining muloqatida murojaat so'zlarning ijtimoiylashuvini ko'rishimiz mumkin.

Odatda, murojaat so'zlar haqida so'z yuritganimizda, eng avvalo, tinglovchi nazarda tutiladi. Tinglovchiga murojaat qilayotgan so'zlovchi, uning e'tiborini qara-tish, yoki o'zining hissiyatlarini bildirish uchun tinglovchiga murojaat qiladi. Bunda murojaatlar tinglovchining tashqi qiyofasi, ichki belgisini ham ifodalashi mumkin.

Murojaat so'zlarda inson tashqi qiyofasi hamda jismidagi ma'lum belgilar, xatti-harakatlar yuzi bilan bog'liq qayta nomlovchi so'zlar guruhi ham qo'llanadi. Tilshunoslikda ijtimoiy –siyosiy, milliy madaniy, etnografik, badiiy estetek, psixologik mohiyatiga ega onomastic birkiklarning eng qadimiy va asosiy turi antroponomik birliklarning bir turi laqablarni o'rganish ilmiy-nazari va amaliy o'rganish doimo e'tiborda bo'lib kelgan. Laqab- [a- kkinchi nom; laqab; taxallus]

Biror xususiyatga ko'ra xazil qilib, yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom. Har qanday onomastik birlik ma'lum nominatsiya ehtiyoji tufayli yuzaga keladi, o'z navbatida, laqablar ham ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan. Laqablar insonning turi belgilariga qarab atrofida turli maqsadlarda qo'yiladi. Laqablar insonlarning qiziqishi, kasbi, korinishi, ovozi, qobilyati, kiyinishiga qo'yiladi. Insonlarning tasqi ko'rinishidagi belgilariga nisbatan qo'yiladigan laqablar va shu so'zlar orqali insonlarga qilinadigan murojaat so'zlarni o'rganamiz.

Tashqi qiyofasidagi belgilarga nisbatan ishlatadigan murojaat so'zlarni besh guruhga bo'lamiz.

- Insonning sochi bilan bog'liq murojaat so'zlar: kal, tepakal, jingalak, silliq, malla.
- Insonning tanasining rangi bilan bog'liq murojaat so'zlar: qoravoy, oppog'oy, sariq.
- Insonning ko'zi bilan bog'liq murojaat so'zlar: shiqir, g'ilay, ko'r, bo'ta ko'z.



- Insonning gavdasi bilan bog'liq murojaat so'zlar: baqaloq, semiz, dumaloq, novcha, naynov, mirzaterak, pakana.

- Insonning yuzi bilan bog'liq murojaat so'zlar: shalpang, puchuq, boteks

Insonning sochi bilan bog'liq bo'lgan murojaat so'zlarga misollar:

Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. Ustida oldi ochiq yaktak, oyog'ida qala kavush, zangori shohi qiyiq bog'lagan, elkasiga xolparang ro'mol tashlagan xushfe'l yigit edi. Choyxo'r boyvachchalardan birortasi:

-Asra!

Yoki

-Kal!- deyishi bilan:

-Labbay, mulla aka, choymi, chilimmi? (G'.G'ulom "Shum bola")

Kal- sochi butunlay yoki qisman to'kilib ketgan kishi. Yuqoridagi misolda ham kal so'zi samovarchi yigitning tashqi qiyofasidagi belgi, ya'ni sochi yo'qli sababli unga murojaatchilar kal deb murojaat qilgan.

Hoy, tepakal, anqayib qaramasdan, buyurilgan ishni tez-tez bajar.(Shevadan ) Tepakal-boshning tepa qismidagi sochi to'kilib ketgan,silliq. Tepakal odam. Bu misolda ham shunday insonga nisbatan qo'yilgan. Tepakal murojat qilaganda, uni masxaralash, kamsitish, nuqsoni ustidan salbiy ma'nolarni ifodalaydi.

Jingalak, qulog'ingga gap kiradimi? Senga bu vazifani aytganimga qancha vaqt bo'ldi.(shevadan). Jingalak – tabiiy oki suniy ravishda halqa yoki yarim halqa shaklida buralgan, qo'ng'iroq( soch, jun haqida). Bu murojaat shakli ham salbiy ma'no kasb etadigan so'z sirasiga kiradi. Tinglovchiga nisbatan masxaralash , kamsitish uchun ishlatiladi.

Insonning tanasining rangi bilan bog'liq murojaat so'zlar: qoravoy yoki qora, oppog'oy, sariq kabi murojaat so'zlar ham she'valarda, badiiy asarlarda insonlarning rangiga qarab atrofdagilar tomonida ijobiy va salbiy ma'noda ishlatiladi

Oppoq, oppog'oy kabi murojaatso'zlar ijobiy ma'noda oq insonlarga nisbatan ishlatiladi. oppoq qiz – har qanday qizga nisbatan erkalatish ma'nosida ishlatiladigan murojaat so'z.

Qoravoy- kurak oyoqli qushlar turkumiga mansu baliqxo'r, suvda yashovchi qush turi.[1] Shevada tanasining rangi jihatdan qora bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladigan laqab. Ayang seni urushmayaptimi, qoravoy?

Insonning ko'zi bilan bog'liq murojaat so'zlar: shiqir, g'ilay, ko'r, bo'ta ko'z bitov.

G'ilay - qaraganda ko'z qorachilari bir tomonga yo'nalmaydigan, to'g'riga qaray olmaydigan, ko'z soqqasi qiyshiq o'rnashgan." [2]

Shiqir – bir ko'zni qisib qaraydigan insonlarga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakli hisoblanadi. O'tkir ko'chaning boshida turgan o'rtog'ini chaqirdi, -shiqir, buyoqqa kel.

Bo'tako'z leksemasi- murojaat so'z vazifasida kelganda, salbiy ma'noda ishlatiladi ya'ni ko'zlari katta-katta qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Butov- tug'ma ko'r ko'zi ko'rmaganligi sababli shu laqabni bergan. Zohid butov, to'yda senga nima bor?

Insonning gavdasi bilan bog'liq murojaat so'zlar: baqaloq, semiz, dumaloq, novcha, naynov, mirzaterak, pakana, shilanka, xumkalla kabi murojaat so'zlar insonning gavdasi bilan bog'liq bo'lib, laqab sifatida qo'yilgan. Bunday murojaat so'zlar esa atrofdagilarning munosabatidan xabar beradi. Salbiy va ijobiy ma'no kasb etadi.



Sho'x, gapdon yigit - Qambar bir oyog'ini sudrab bosar edi. U ayyorcha kulib, sariq tukdan iborat qoshlarini chimirib so'zlab ketdi:

- Miris'hoq aka, jilla bo'lmasa, mehmonlarning oldida cho'loq demang...Qani chopishasizmi men bilan?

- Chilimni sol, cho'loq, hazilni bilmagan, kal Fozil! O'zi cho'loq-ku, shamolday tez uchadi. (Oybek "Qutlug' qon") . Misolda qo'llanilgan cho'loq murojaat so'zi ham masharalash, mensimaslik ma'nolarini ifodalayapdi. Salbiy ma'nodagi murojaat so'zlar sirasiga kiradi.

- Jim! - ko'zlarini yormatga olaytirib qichqirdi ellik-boshi. - Xumkalla! Shariat yo'lida toygan qizingning gapiga ishonasanmi? Xumkalla- xum kabi katta bosh, kallador ma'nolarini ifodalaydi.[3] Yuqoridagi misolda ham xumkalla so'z boshi katta insonga nisbatan ishlatilgan.

Shlanka, ya'na bir marta shu qizning yonidan ko'rsam, o'zingdan o'pkala. Shlanka-o'ralmoq, chirmalmoq. Rezina yoki suv o'tkazmaydigan materyallardan yasalgan egiluvchan turba. Bu shlanka so'zining izohli lug'atdagi ma'nosi. Murojaat so'z ya'ni laqab sifatida insonlarga nisbatan ishlatilganda novcha juda ozg'in odamlarga nisbatan qo'llaniladi.

"Hoy semiz, uyga kirib kitob javonda kitobimni olib chiq"-dedi, Nodir to'lachadan kelgan ukasiga. Semiz - etli, to'lachadan kelgan, to'la. Bu murojaat ham masxaralash ma'nosida qo'yilgan laqab hisoblanadi. Semiz murojaat so'zi ham salbiy ma'nodagi murojaat so'z sanaladi.

O'yna, do'mbog'im, o'yna. ("Xurmacha"). Muloqat jarayonidan bu so'zlardan notanish insonlarga ishlatiladigan, uning tashqi ko'rinishi aniq ifodalamas ham hurmat yuzasidan ishlatiladigan murojaat so'zlar hisoblanadi.

Pakana- bo'yi o'rtachadan past, bo'yi o'smay qolgan, bo'yi past. Pakana, qani oldinga tush, qilgan ishingga javob ber.

Naynov - bo'yi baland , novcha. Ko'chatni kim sindirganini ko'rdingmi, naynov?

Insonning yuzi bilan bog'liq murojaat so'zlar: cho'tir, g'isht, shalpanq, puchuq.

Shalpanq - shalpaygan, osilib tushgan; qulog'i beso'naqay. <sup>1</sup> bu yerda nima ishing bor, shalpanq?

Puchuq - yassi yopishgan, yoki shikastlangan burun. Burni yuz tuzilishiga nisbatan kichkina bo'lganligi sababli berilgan. Obbo sen, puchuqvoyee, xolangdan xabar olgani kelibsanda?

Insonning tashqi belgisi bilan bog'liq murojaat so'zlarda murojaat so'z sifatida ishlatilganda ham, oddiy so'zlashuvda lug'aviy m'nodagi singari qo'llanadi. Buning sababi obyekt qayta nomlanganligidir. Insonning tashqi belgisi ko'ra atrofdagilari tomonidan qayta nomlangani kabi uning ichki belgisi orqali qayta nomlash mumkin. Bunda insonning harakteri, psixologik holati yoki biror boshqa jihati namayon bo'ladi. Axmoq , tentak, yetimcha, ovsar, aqlli, bilimdon, mahmadona, maqtonchoq, vaysaqi, mard, azamat, yolg'onchi kabi so'zlar tinglovchining ismi bilan yoki nutq vaziyatidan kelib chiqib alohida kelganda ham murojaat birligi vazifasida kelishi mumkin. Bu so'zlar muloqat jarayonida tinglovchiga nisbatan hurmatni, e'tiborni yoki kamsitilishni ifodalaydi.

- Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi.(S.Ahmad. "Qora ko'z majnun")



- Dadamga...mumkin emas,-dedim kozimga yosh olib.
- Hazilingniqo'y, Arslonim, tez bo'l.

Kunlardan bir kun Tojixon jinni bitta ketmon dasta bilan o'tgan-ketganni quvlab, urib-so'kib:"hammang bir tomonga yur, tarqalib yurma! Tartib kerak, intizom kerak", der edi. Hech kim unga bas kelolmas edi. Shunda Olim jinni kelib qolib :

- Xoy, xoy, nima deyapsan, jinni? – deb so'rab qoldi. ("shum bola") Jinni – shu kasallikka chalinganligi sababli shu laqab bilan atashadi. Ammo sog'lom kishilarga nisbatan ham bu laqab ishlatiladi, uni koyish, urishish maqsadida qo'llanadi.

Azamat- g'ayratli, shijoatli. Ha , balli, azamat, necha kundun buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. ("Shum bola") bu misoldagi azamat murojaati , kishilarning gavdasiga nisbatan ishlatiladi.

- Jiyda solkash ko'rinadi, bu yil meva qilmapdi, -dedim. Omon menga qarab kuldi.
- Voy, ahmoq. Hozir saraton. Saratonda jiydamevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oy keyin mevalar qaytib keladi,- dedi. Men esimdan chiqargan ekanman.

Keltirilgan misollarda adresant (so'zlovchi)ning tinglovchiga nutq momentidagi maqsadini, holatini, vaziyatini, psixologiyasini adresatga yetkazishga yordam beradi.

Insonlarning ichki va tashqi belgisiga ko'ra murojaat birliklarining qo'llanishida ijtimoiy omil ham o'ziga xos vazifani bajaradi. Ya'ni yoshining teng bo'lishi, so'zlovchi tinglovchiga nisbatan yuqori tabaqadan bo'lishi, yoshi katta bo'lishi, yaqin qarindoshi bo'lishi mumkinligini anglatadi. Laqablar tinglovchiga nisbat so'zlovchi munosabatini ochib beradi. Laqablar murojaat so'z vazifasida kelganda so'zlovchining kayfiyatini, harakterini, tinglovchiga nisbatan qanday munosabatdaligini ochib beradi.

## References:

1. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат birlikларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фан.номзоди...дис.автореферати. – Тошкент, 2008. – 25 б.
2. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан.номзоди...дис.автореферати. – Тошкент, 2007. – 23 б.
3. Cayfullayev A.R. Hozirgi zamon o'zbek tilida undalma. Buxoro, 1957;
4. Cayfullayev A.R. Undalmaning leksik-semantik hususiyatlari. Samarqand, 1958;
5. Cayfullayev A.R. Undalmaning umumiy xarakteristikasi. Samarqand, 1960;
6. Cayfullayev A.R. Undalmaning grammatik leksik ifodalanishi. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari", 1960, 3-son
7. O'zbek tili izohli lug'ati. 5-tom 337-b,- Toshkent
8. O'zbek tili izohli lug'ati. 5tom 445-b, - Toshent